

ULUG‘BEK HAMDAMNING “TO‘RTKO‘CHA” ROMANI HAQIDA  
MULOHAZALAR

**Yunusxo‘jayeva Kumush Anvar qizi,**  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti II kurs magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “To‘rtko‘cha” romanida aks etgan dolzarb ijtimoiy, ma‘naviy va ruhiy muammolar tahlil qilinadi. Asarda mustaqillikning ilk yillarida jamiyatda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, mehnat migratsiyasi, poraxo‘rlik, dinga ko‘r-ko‘rona ergashish, yoshlarning chet elga intilishi, ma‘naviy qadriyatlarning yemirilishi kabi masalalar badiiy obrazlar va voqealar tizimi orqali yoritilgan. Maqolada yozuvchining ushbu muammolarni tasvirlashdagi badiiy mahorati hamda romanining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ulug‘bek Hamdam, “To‘rtko‘cha”, ijtimoiy muhit, mustaqillik davri, ma‘naviy inqiroz, milliy o‘zlik, mehnat migratsiyasi, poraxo‘rlik, globallashuv, din, grin karta, badiiy talqin.

**Аннотация.** В данной статье анализируются актуальные социальные, духовные и психологические проблемы, отражённые в романе “То‘ртко‘ча”. В произведении посредством системы художественных образов и событий раскрываются такие вопросы, как экономические трудности первых лет независимости, трудовая миграция, коррупция, слепое следование религиозным взглядам, стремление молодёжи к выезду за границу, а также разрушение духовных ценностей. В статье раскрываются художественное мастерство Ulug‘bek Hamdam в изображении данных проблем и социально-философское значение романа.

**Ключевые слова:** Ulug‘bek Hamdam, “To‘rtko‘cha”, социальная среда, период независимости, духовный кризис, национальная идентичность, трудовая миграция, коррупция, глобализация, религия, грин-карта, художественная интерпретация.

**Abstract.** This article analyzes the pressing social, spiritual, and psychological issues depicted in “To‘rtko‘cha”. Through a system of artistic images and events, the novel portrays such problems as the economic difficulties of the early years of independence, labor migration, corruption, blind adherence to religion, young people’s aspiration to go abroad, and the erosion of spiritual values. The article also reveals Ulug‘bek Hamdam’s artistic mastery in representing these issues and highlights the socio-philosophical significance of the novel.

**Keywords:** Ulug‘bek Hamdam, “To‘rtko‘cha”, social environment, independence period, spiritual crisis, national identity, labor migration, corruption, globalization, religion, Green Card, artistic interpretation.

**Kirish.** Bugungi kun o‘zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug‘bek Hamdam o‘zining chuqur va sermazmun asarlari bilan xalq e‘tiboriga tushgan yozuvchilardan biridir. Ulug‘bek Hamdam asarlari bugungi kunda allaqachon o‘z o‘quvchilarini topgan. Ijodidan bahramand bo‘lmoqchi bo‘lgan o‘quvchida ma‘lum intellektual tayyorgarlik bo‘lishi kerak. Ulug‘bek Hamdam ijodi yangilikka, yangilanishlarga boy. Yangi asar taqdim etishi bilan barchani e‘tirofiga tushadi. Xuddi shunday asarlaridan biri “To‘rtko‘cha” yozilganiga bir yil ham bo‘lmay kitobxonlarni o‘ziga rom etdi.

**Adabiyotlar sharhi.** Dunyo ichra sanoqsiz dunyolar bor. Hamma o‘z dunyosida yashaydi. Kimdir og‘ir hayot yo‘lidan o‘tgani uchun dunyoni qora ranglarda ko‘radi, kimdir esa o‘z hayoti yaxshi bo‘lsa-da, jamiyatning umumiy ahvolini, adolatsizlik, nohaqliklarni, moddiy va ma‘naviy tanazzulni teran his qiladi. O‘zi uchun emas, el-yurt uchun o‘rtanadi. Mazkur asarda Ulug‘bek Hamdam shu qiyofada namoyon bo‘ladi. Garchi

qahramonlar nomi o'zga bo'lsa-da, avtobiografik ruh sezilib turadi. Ulug'bek Hamdamning boshqa asarlari qatori bu roman ham millatimizning buguni va ertasi uchun o'ta muhim bo'lgan muammolar asar qahramonlari taqdiri misolida tasvirlanadi. Yozuvchining "To'rtko'cha" romanini millat hayoti haqida yozilgan falsafiy – publitsistik asar deyish mumkin. Pedagogika fanlar doktori Qozoqboy Yo'ldoshev romanning so'zboshisida asar haqida shunday fikrlar bildiradi: "Nazarimda, Ulug'bek Hamdam biror narsani yozish kerakligi uchun emas, balki yozmasa turolmay qolgani uchun yozadiganday. Ushbu asar ham shunday xususiyatlari bilan diqqatni tortadi. Adibning yangi romani uning oldingi bitiklaridan dardchilroq, konkretroq, siyosiyroq va publitsistik ruh yetakchi ekani bilan ajralib turadi. Odatda, publitsistiklik badiiy bitikning yetishmovchiligi deb qaraladi. Ushbu romanda esa bu jihat kamchilikdan fazilatga aylangani ko'zga tashlanadi. Negaki, bu sifat asarga hayotiylik va zamonaviylik baxsh etgan" [1:58].

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Kitob tili sodda, ravon va o'qishli bo'lib, har qanday o'quvchi o'qib tushuna oladi. Asardagi suhbatlar, ichki o'ylar va tasvirlarning hayotiyligi bizni kitobga mixlab qo'yadi. Yozuvchi hayoti davomida turli davrlarda boshidan o'tgan, ko'rgan-kechirgan, guvohi bo'lgan voqealar, anglagan hayotiy falsafalar, ba'zan xayoliy haqiqatlarini asarda jamlagan. Ilk mustaqillik yillaridagi og'ir turmush tarzi, sotsiolizmning qoldiqlari, berilgan "qurbonliklar"ni bor bo'yi bilan ko'rsatib bera olgan ijodkor. "To'rtko'cha" romanini yashash qiyin bo'lgan davrda yashagan, hayot ko'ptok qilib tepsa ham, firibgarlar bilan sinasa ham, insonligini yo'qotmagan inson tomonidan yaratilgan shedevr asar deya baholay olamiz", deb romanga yuksak baho beradi yosh tadqiqotchi Gulchehra Xalilova.

**Tahlillar va natijalar.** Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha"da qayta qurish davridan boshlab toki O'zbekistonning Birinchi Prezidenti o'limigacha bo'lgan davrdagi yurtning qismati tasvirlangan. Ya'ni, asarda xalqning o'tmishi oynadek ko'rsatilgan. Romanda SSSR davrida ishga borib, maoshini olib, oilasi bilan kunini to'qlikda va halovatda o'tkazayotgan, ertangi kunga umid bilan yashayotgan o'zbek xalqining istiqloldan keyingi hayoti aks etgan. Birdaniga hamma narsa izdan chiqib, odamlar ishsizlik, pulsizlik va chorasizlikda qolib ketadi. Yurtda korrupsiyaning avj olishi, poraxo'rlik, davlatning madaniy va tarixiy merosini yashirin yo'llar bilan pullash, sudxo'rlikning avj olishi, insonlarning haq-huquqi poymol bo'lishi va natijada umidsiz hamda orzusiz kishilarning ko'payishini asar qahramoni O'lmasning nigohi ila ko'ramiz. Ulug'bek Hamdam O'lmas orqali jamiyatdagi bu hodisalarga madaniyatli, ilimli hamda jonkuyar inson sifatida mulohaza yuritib kitobxonga nima to'g'riligini ko'rsatib ketadi. Ulug'bek Hamdam asarlarini mutolaa qilgan kitobxon biladiki, yozuvchi o'ta mulohazakor, bir hodisaga juda sinchkovlik bilan boqib, har taraflama chuqur o'ylab fikrlovchi insondir. Aynan kuyunchaklik va hissiyotchanlik muallifning boshqa romanlarida ham sezilib turadi. Har bir voqeadan so'ng adibning shaxsiy pozitsiyasi va

mulohazalari kelishi Ulug‘bek Hamdam asarlariga xos umumiy jihat hisoblanadi. “To‘rtko‘cha”da bu jihat haddi a'losiga chiqibdi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqilligi e‘lon qilinishi bilan mamlakat tarixida yangi davr boshlandi. Mustaqillik siyosiy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, iqtisodiy tizimning keskin o‘zgarishi jamiyat hayotida murakkab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi. Sobiq ittifoq davrida markazlashgan iqtisodiy tizimga moslashgan ishlab chiqarish tarmoqlarining izdan chiqishi, yangi bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni va iqtisodiy inqiroz natijasida aholi turmush darajasi sezilarli darajada pasaydi. Natijada ishsizlikning ortishi, oyliklarning vaqtida berilmasligi va aholining bir qismi uchun turmush sharoitining og‘irlashuvi kuzatildi. Turmush darajasining pasayishi aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishni qiyinlashtirgan. Natijada ayrim oilalar qo‘shimcha daromad topish maqsadida turli norasmiy ishlar bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan. Buning oqibatida esa ular butun dunyo bo‘ylab mardikorga aylanib ketadi. Asardagi O‘lmasning qishloqdoshi, matematika o‘qituvchisi Rahmatjon aka maktabda o‘zi ozgina bo‘lgan maoshi ham vaqtida berilmay, yarim yillab kutib, qarzga botib, axiyri chida olmay ishlash uchun chetga ketadi. Qarzlaridan qutulib, bola-chaqani oyoqqa qo‘yaman deb ketgan Rahmatjon akaning Rossiyaga ketganiga bir yil bo‘lganda o‘pkasini sovuq urib, tobutda o‘ligi keladi. Ziddiyatli vaziyat va buning oqibatida yuzaga kelgan qiyinchiliklar bir ziyoli insonni, qolaversa o‘qituvchini qay ahvolga solgani ayanchli tasvirlangan asarda. Ulug‘bek Hamdam birgina Rahmatjon aka taqdiri bilan butun xalqning boshiga tushgan savdoni ko‘rsatib beradi.

O‘sha davrdagi jamiyatimizning eng og‘riqli muammolaridan biri – poraxo‘rlikdir. Poraxo‘rlik kechagi, qolaversa bugungi kunning ham dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu illat nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki jamiyatdagi adolat va ishonch muhitiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Afsuski, poraxo‘rlik eng asosiy ustun bo‘lgan ta‘limda ham uchrab turadi. Masalan, ba‘zi odamlar o‘qishga kirish, mukofot yoki rag‘bat olish kabi jarayonlarda bilim va mehnatga emas, tanish-bilish va pulga tayanishga harakat qilishadi. Bu esa halol mehnat qilayotgan, bilim olishga intilayotgan yoshlarning haq-huquqiga putur yetkazadi. Natijada jamiyatda adolatsizlik hissi kuchayadi va iste’dodli yoshlarning imkoniyati cheklanib qoladi. Shunday nufuzli mukofotlar borki, unga loyiq topilgan yoshlar oliy ta‘lim dargohiga imtihonsiz qabul qilinadi. Asarda xuddi shunday imtiyozga ega bo‘lgan, qizlar uchun beriladigan mukofotini farzandiga olib berishni maqsad qilgan ota-ona O‘lmasga qizi uchun she‘r yozib berish taklifini bildirishadi. O‘lmas bu mukofot uchun yosh qizlar she‘r yozdirib, to‘plamlar chiqarayotgani haqida xabardor. Ammo bu haqiqatga aylanib boshiga bir botmonlik gurzidek kelib urilishi – butunlay boshqa hodisa edi. Shunday jamiyatda yashasa ham vijdoni tirik O‘lmas bunday ishga qo‘l urmaydi. Bu chirkin ishdan omonda qoladi.

Asardagi: “Orzu-maqсадlarimiz maydalashdi. Shunga yarasha ideallar ham. Nazarimda zamondoshlarimizning ko‘pchiligi tuzukroq orzu qilishni ham bilmaydi hozir.

Ideallar haqida esa tasavvurga ham ega emas”, yo‘sinidagi hasratli iqrор kitobxonni iztirobli o‘ylar girdobiga uloqtiradi. Atrofidagi odamlarni komil ko‘rmoq orzusidagi qahramonning: “Biz bugun haqiqiy ma‘nodagi orzu qilishdan uzoqla-shib ketdik. Judayam uzoqlashdik. Istaklarimizni orzu deb atay boshladik. Ha, biz orzuni istak darajasiga tushirib qo‘ydik. Istak badanning ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lsa, orzu, chinakam orzu ruhning, inson ma‘naviy o‘zaginging ehtiyojlari bilan qoimdir..” [2:252] yo‘sinidagi so‘zlari o‘quvchilar tafakkur olamini kengaytiradi.

Mustaqillikning ilk yillarida jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yangicha tafakkur va tizimni shakllantirish edi. Shu bois “eskilikdan voz kechish” g‘oyasi ilgari surildi. Bu, albatta, ma‘lum ma‘noda to‘g‘ri edi: sobiq tuzumdan qolgan ayrim qarashlar, eskirgan boshqaruv usullari va qolipga tushib qolgan fikrlash tarzidan voz kechish zarur edi. Albatta, har qanday jamiyat rivojlanish uchun yangilanishga muhtoj. Yosh kadrlarning kirib kelishi, zamonaviy bilim va texnologiyalarning joriy etilishi taraqqiyotning muhim omilidir. Lekin bu jarayon uzviylik tamoyiliga asoslanishi kerak. Ya‘ni, yangi avlod eski avlodni inkor etmasdan, balki ularning tajribasiga suyanib rivojlanishi lozim. Afsuski, “eskilikdan voz kechish” deganda faqat tizim emas, balki shu tizimda ishlagan, umrini mehnatga bag‘ishlagan yoshi katta mutaxassislar ham nazarda tutilgandek bo‘ldi. Natijada ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan, o‘z sohasining yetuk bilimdonlari ishidan chetlashtirildi yoki ularning salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmadi. Bu esa jamiyat uchun katta yo‘qotish edi. Chunki tajriba – bu bir kunda yoki bir necha yil ichida shakllanadigan boylik emas. U o‘nlab yillar davomida mehnat, xatolar, sinovlar orqali to‘planadi. Yoshi katta mutaxassislar nafaqat o‘z sohasini chuqur biladi, balki murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, muammolarga kengroq nigoh bilan qarash qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Bunday insonlarni “eskilik sarqiti” sifatida chetga surish – bu jamiyatning o‘z ildizlarini inkor etishi bilan barobar.

O‘lmasning professor olim ustoz shunday holga tushdi. Butun umr to‘g‘ri deyilgan yo‘ldan yurgan, kun kelib zamon almashganda: “Siz bizga kerak emassiz, endi siz bilgan bilim chiqit, siz yurgan yo‘l xato! Siz kechagi kun odamisiz, endi yangi tong otdi, ariza yozing endi yoshlar ishlasin, deya ishdan olishgan”. Eng alam qilarlisi esa, shuncha yil qilingan mehnat va bilimni qadrlanmaganligi edi. Eski avlodga tegishli nimaiki bo‘lsa, hammasidan qancha tezroq voz kechilsa, shuncha tez yangi dunyoni quriladi, deb qarashdi. Sallani olib kel desa, kallani ko‘tarib keladigan unday insonlar, butun boshli kutubxonalarni yo‘q qilishdi, undagi kitoblarni esa chiqitga chiqarishdi. Bu qanday razolat? O‘lmasning ustozining bu so‘zlari qanchalik yurakka og‘ir botadi: “Kecha nima qilingan bo‘lsa, hammasi – yomon, bugun nima deyilayotgan bo‘lsa, hammasi – a‘lo! Shundaymi? Axir ularning miyyasidan kechagi kunni olib tashlasak, ularning o‘zida ham hech nima qolmaydi-ku! O‘sha yangi ham eskiga asoslanib quriladimi yo uning matosi osmondan olinadimi? Yangilik an‘ana bag‘ridan o‘sib chiqadi, deb million martsa o‘qitgan edik. Unutildimi?” [2:80]

Ulug‘bek Hamdam asardagi har bir qahramon orqali ma‘lum bir muammoni ko‘rsatar ekan, albatta yechimini ham berib ketadi. Shunday ekan biz bu voqea orqali nimani tushunishimiz kerak: yangilanish – bu buzish emas, balki qurish jarayonidir. Qurish esa mavjud poydevorga suyanadi. Agar poydevor – ya‘ni tajriba, bilim va qadriyatlar inkor etilsa, barpo etilgan yangilik mustahkam bo‘la olmaydi. Shuning uchun “hamma narsani yangilash” shiori bilan birga “mavjudni asrab, uni rivojlantirish” tamoyili ham doimo yodda tutilishi kerak.

Asardagi asosiy personajlar har qanday holatning sabab-oqibati to‘g‘risida fikr yuritadi. Natijada mavjud holatning mohiyatini ochishga imkon tug‘iladi. Millat ahlining bugungi ahvolidan sababi ham shunday fikrlash natijasida ochiladi. Sovet davrida har bir odam kattadir-kichikdir, yaxshidir-yomondir qandaydir yumush bilan ta‘minlangan, ishxonasi va maoshi bo‘lgan. Odamlar shunga ko‘nikkan, ertangi kundan tashvishi bo‘lmagan. Tuzum o‘zgargach, birdaniga umuman boshqa sharoitga tushib qolgan odamlar holati asarda personaj tilidan: “Endi qiladigan ish yo‘q, deyarli hamma bekorchiga aylangan-qolgan. Bekorchilik esa qashshoqlikni yetaklab kelgan. Qashshoqlik o‘z navbatida tafakkurdagi qoloqlikni paydo qilgan. Qoloqlik bor joyda esa haqiqiy din qolib, nosog‘lom din, sekta, mafiya urchiydi. Hukumatning so‘zi bilan ishi ham boshqa-boshqa bo‘lib qoladi. Ishonch yo‘qoladi. O‘z holiga qo‘yilgan olomon ozod suvdek eng qulay tomonga qarab oqa boshlaydi”, — tarzida juda haqqoniy va asosli ko‘rsatib beriladi. O‘lmasning qishloqdagi kuzatishlaridan shu ma‘lumki, nima qilarini bilmay qolgan olomon yugurik suvdek eng qulay tomonga oqa boshlagan. Din ular uchun ana shunday qulay chora bo‘lib ko‘ringan. Yo‘qsa, oldin nomoz o‘qimagan qishloq odamlari nega yoppasiga qiblaga yuz burdi? O‘lmasning fikricha, qishloqdoshlarining aksari “din” deb ko‘tarib yurgan narsasi vaqtinchalik bir taskin, shaklbozlikdan boshqa narsa emas. Ma‘nosiga emas, shakligagina rioya qilingan din esa millatni yuksalishiga emas, tanazzulga xizmat qiladi. “Ha, odamlar turmushning achchig‘ini unutish, uni nima bilandir to‘ldirish uchun yuzlangan edilar. Chorasizlikdan topilgan chora edi ular uchun din. Agar turmushlarida o‘zga bir choraga duch kelib qolinsa, din degan «chora»dan yuz o‘girilar edi bunday vaziyatda. Har holda, ko‘pchilik shunday yo‘l tutardi. O‘lmas buni yurak-yurakdan his qilib turardi”. Aslida-chi? Aslida, din chorasizlikdan bosh urilgan choradagina iborat bo‘lib qolmasligi lozim! U inson qalbini maskan tutdimi, demak, uning yaxshi kunida ham, yomonida ham birdek hamrohi bo‘lishi shart. Ya‘ni din, agar u sog‘lom tarzda qabul qilingan bo‘lsa, inson hayotini ich-ichidan yoritib turishi kerak, zinhor zulmatga g‘arq etmasligi lozim. “Din xalq uchun afyundir, deganda, mana shunday vaziyatlarga tushib qolgan dardmand elga tutiladigan dori nazarda tutilgan bo‘lsa, ajab emas! Yo‘q, chinakam din dunyoni, uning tashvishlarini unuttiruvchi afyun emas, balki unga oshno bo‘lgan inson ko‘zini charaqlatib ochguvchi vasiladir. Qolaversa, masalan, musulmonlarning muqaddas kitobi Qur‘oni Karim “Iqro”, ya‘ni “O‘qi” degan so‘z bilan boshlangan edi. Buning ma‘nosi - Qur‘onni o‘qi, olamni o‘qi, odamni o‘qi, demakdir. Bas,

islom dini mudom va bir umr o'qishga buyurar ekan, nega bu millat o'qishdan uzoq tushib, faqat va faqat diniy marosimlar-u uning zohiriy shakllari bilan andarmon bo'lib qoldi?"

Shuningdek, asar qahramonining jamiyatdagi holat odamlarning e'tiqodi va ma'naviyatiga ham jiddiy ta'sir qilib, uni o'zgartirib yuborishi mumkinligi haqida aytgan: "...jamiyat, undagi odamlar qanday bo'lsa, dinni ham, boshqa ta'limotlarni ham o'z ko'yiga soladi. Qoloq odamning siyomosida u qoloq bo'lib, ilg'or insonning siyomosida esa ilg'or ta'limot bo'lib namoyon bo'ladi. ...biz-da jamiyatning to'piqqa chiqar-chiqmas darajasi dinni ham o'z saviyasiga moslab tushunyapti, tushuntiryaptiki, buning adog'i esa xavfli. Hatto o'ta xavfli... Johilga din emas, ma'rifat tutiladi. Din tutildimi, ulardan yaxshilik kutma! Ma'rifatli, o'qimishli insonning dindorligidan esa atrofga foyda bo'lsa borki, aslo ziyon yo'q", tarzidagi qarashi ham haq ekani bilan o'quvchi ko'nglidan joy oladi. O'lmas qishloqdoshi shifokor Ne'mat aka iltimosiga ko'ra nechi oylab kutib Shayx hazratlarining qabuliga ruxsat olib kirishsa, Ne'mat akaning beradigan savollari o'ta jo'n: nomozda kiyimning qanday kiyilishi-yu, qo'lning qanday turishi yoki taxorat olish tartibi haqida edi. Buni eshitgan O'lmas achchiqlandi. Axir bularning bari u yoki bu diniy qo'llanmalardan o'qib-o'rganib olinadigan zohiriy bilimlar edi xolos. Bularning bari mazhablar, ulardagi turlicha yondashuv bilan bog'liq shakliy masalalar. Ne'mat akaning bunday savollari orqali muallif yuqoridagi fikrlarini tasdiqlaydi. Axir Ne'mat aka yetti-sakkiz yil tibbiyot sohasida o'qigan, malakali vrach shunday fikrlasa, avom xalq qay ahvoldaligini tasavvur ham qila olmaymiz. "Hali ham tashqarida yuribdimi bu millat? Qachon ichkariga kiradi? Qachon dinning shaklini emas, mazmun-mohiyatini anglaydi?"

Bugun jamiyatimizda tobora kuchayib borayotgan bir jarayon bor: "grin karta" orzusi. Bu oddiygina hujjat emas, balki ko'pchilik yoshlar uchun "yaxshi hayot" timsoliga aylangan. Ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlari sari intilish — pul topish, sharoitini yaxshilash, tezroq "odam bo'lish" istagi bilan izohlanmoqda. O'lmasning o'g'li Erkin ham shuni xohlovchilardan biri edi. Ammo bu yo'lning ko'rinmaydigan, o'ylantiradigan tomonlari ham bor. O'lmas buni yaxshi bilardi. "...sening bollaring ham inglizlashadi, inglizlashib, ildizini, turkiyligini yo'qotadi. Sening kuching yetmaydi – assimilatsiya hodisasi ishga tushadi. Katta madaniyat kichikni o'ziga singdirib oladi. Bu – qonuniyat. Hayot qonuni! Unga bas keladigan azamatni hali ko'rmadim men. Sen u vaqtlarda tirik bo'laysan ham. Qani Boburni avlodlari? Nima bo'ldi ularga? Singib, o'zliklarini unutishdi-ku ular! Hozir, mana, Hindistonda Bobur-u boburiylardan qolgan neki yodgorlik bo'lsa, yo'q qilamiz, deydigan nigilistlar chiqqan. Kim biladi, ana shu millatchilar ichida Boburning qondoshlari ham bo'lishi hech gap emas!" – deya achchiq dalillar keltirdi O'lmas. Erkinning maqsadi boshqa yoshlar qatori moddiyatini tiklash, yaxshi sharoitda yashash edi. Ular o'z yurtida topolmagan imkoniyatlarni chet elda izlaydi. Bu tabiiy hol. Lekin muammo shundaki, pul asta-sekin maqsadga aylanib qoladi. Inson o'zini, qadriyatlarini, kimligini unutib, faqat daromad ortidan quvishni boshlaydi.

Masala Amerikaga borishda emas. Masala — qanday maqsad bilan borishda. Agar inson: bilim olish, tajriba orttirish, o‘zini rivojlantirish uchun borsa, u holda bu yo‘l foydali bo‘lishi mumkin. “Inson, avvalo, o‘z yurtiga, millatiga xizmat qilishi kerak. Buni eplagandan keyin, mayli odamzot koriga yarasin”, — deb ta’kidlaydi Ulug‘bek Hamdam asarda. Kun kelib Erkin Amerikani shu yerda, O‘zbekistonda qurish kerakligini tushinib yetdi. O‘lmas o‘g‘lining bu so‘zlarini grin karta chiqmay popugi pasaygan Erkinning so‘zlari deb o‘ylagandi, lekin unday emas. Mingtadan bittaga chiqadigan bu yutuq Erkinga chiqqan edi, biroq o‘g‘li uni rad qildi, o‘z Vatanida qolishni xohladi. Bu hodisa esa O‘lmasda yurt kelajagiga chinakam ishonchni uyg‘otdi.

**Xulosa.** Ulug‘bek Hamdamning To‘rtko‘cha romani o‘zbek xalqining mustaqillikdan keyingi murakkab ijtimoiy-ma’naviy hayotini badiiy jihatdan teran aks ettirgan asarlardan biridir. Romanda jamiyat hayotida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, ma’naviy bo‘shliq, tarixiy xotiraning susayishi, yoshlarning o‘zligini anglash muammosi, chet elga intilish, milliy qadriyatlarning qadrsizlanishi va inson ruhiyatidagi ichki ziddiyatlar badiiy obrazlar, voqealar va ramziy detallar orqali ta’sirchan ifodalangan. Asarda ko‘tarilgan muammolar faqat muayyan davrning ijtimoiy manzarasini tasvirlash bilangina cheklanmay, inson va jamiyat, shaxs va muhit, milliylik va globalashuv o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Qahramonlarning iztiroblari, izlanishlari va hayotiy sinovlari orqali muallif insonning ma’naviy tayanchi, tarixiy xotirasi va milliy o‘zligiga sodiq qolishi naqadar muhim ekanini ta’kidlaydi.

“To‘rtko‘cha” romani jamiyatimizning dolzarb mavzularini qamrab olgan va yuqori saviyada yozilgan. Shuningdek, yozuvchi o‘zi ko‘rgan voqealarini qog‘ozga tushirgani asarlarning badiiy qiymatini yanada oshiradi. Bir so‘z bilan aytganda, kishini mulohaza va mushohadaga chorlaydigan ushbu asar bugungi davr adabiyoti uchun qimmatli adabiy durdonadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Q. Yo‘ldoshev. U. Hamdam To‘rtko‘cha so‘zboshi. Toshkent-2024.
2. G. Xalilova. To‘rtko‘cha romanining avtobiografik xususiyatlari. Til va adabiyot.uz 2025-10-son.
3. U. Hamdam. To‘rtko‘cha. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.